# O[illegible] qoğoz va qora doğ

## Ijodiy bayon

Reja:

1. Tashqi kōrinish yolğonchidir
2. Professorning topshiriği
3. Talabalarning taajjubi
4. Professorning oqilona javobi
5. Gōzal hayotimizdagi qora doğlar

Puli kōp emas, qanoatli inson boydir, hamma narsalarga ega odam emas, sotib olishi mumkin bōlmagan narsaga ega bōlgan odam baxtlidir, chiroyning ham yuz gōzalligi emas, qalb gōzalligi qadrlanadi, hayotning ham qora doğlari uni gōzal qilishga yaratiladi.

(Suqrot)

Insonlar faqatgina tashqi kōrinishga baho berishadi. Chiroyli narsalarni sevishadi; chiroyli chehralarga mahliyo bōlishadi. Dunyoning ham faqat chiroyli kunlariga e'tibor berishadi. Lekin bilishmaydiki, umr faqat ajoyibotlardan iborat emas, faqat oppoq kunlar kelavermaydi, inson har doim ham muvofaqqiyat qozona olmaydi. Lekin sabr va bardosh ularni gōzal hayot tomon yetaklaydi.

Kunlarning birida bir professor darsxonaga kirib, talabalarga ajoyib mavzudagi testga tayyorlanishlarini sōrabdi. Ularga diqqat bilan qarab, kōzdan kechirib chiqibdi va papkasidan test qoğozlarini olib, teskari holatda ōquvchilarning yonlariga borib, tarqata boshlabdi. Qoğozlarni tarqatib bōlgach,

talabalarga qoğozda nima ko-rishayotgan bõlsa, õsha narsani yozishini aytib, darsxonani tark etibdi.

Talabalar test qoğozlarini õgirar ekan, oppoq qoğozda qo-ra doğga kõzlari tushdi. Ular taajjubga tushib, professor ayt-ganidek, kõrgan narsalarini yozishga asta-sekinlik bilan ishga tushishdi. Ular ayrim vaqt-dan keyin yozishni tõxtatishdi. Darsning oxiriga kelib, professor barchadan qoğozlarni yiğib olib, har bir talabaning yozgan ja-voblarini ular oldida ovoz chi-qarib õqibdi. Talabalarning bar-chasi faqatgina qora nuqta haqida, uning qoğoz õrtasida joylashgani haqida yozgan, õz fikrini bayon qilgan edi.

Javoblar õqib bõlingach, oraga sukunat chõmdi va biroz õtib

profissor talabalarga: „Sizlarning yozganlaringizga baho qõymoqchi emasman. Sizni mulohazaga chorlamoqchi edim, xolos. Sizlar qoğozdagi faqat qora doğniginа tasvirlagansiz, lekin, vaholangki, qoğozda qora doğdan tashqari, oq joylar ham bor edi. Xatto, ular qora doğdan ham kõp edi. Sizlar bõlsa, faqat qora doğga e'tibor qaratgansiz. Bu bilan siz umringizning oppoq, ya'ni, faqat shodlikka tõla kunlarini e'tiborsiz qoldirasiz. Unga parvo qilmaysiz. Ammo, qora doğ, ya'ni qora kunlar, ğamginlik lahzalari boshlanganda esa esankirab qolasiz, bor e'tiboringizni shu kunlarga qaratib, qoronğu chuqurlikka tushib qolasiz. Insonlarning faqatgina qora nuqtasiga kõzingiz tushadi, lekin nazar solsangiz uning oppoq kõngli ham

bor"- deb jilmayib qōydi.

Hayotimizda har doim ~~ko~~ oppoq sahifalar bōlavermaydi. Oppoq orzular har kun ham rōyobga chiqavermaydi. Lekin qora dog ham abadiy emas. U ham bir kun kelib, ōz ōrnini oppoq kunlaga bōshatib beradi. Shunday ekan umrimizni ğamğinlikka emas, shodlikka tōldirishimiz kerak.

## Ijodiy bayon

## Hamisha shunday bōlavermaydi

Reja:

1. Yigitning mōysafidni uchlatishi
2. Yigitning mōysafidga aytgan hayoti
3. Mōysafidning maslahati
4. Yigitning ōzgargan turmushi
5. Hayot bir xilda bōlavermaydi

Kōchada sayr qilib yurgan bir kishi kōchaning boshidagi da-

raxt soyasida bir keksa mōysafidga kōzi tushib qoldi. U kishi mōysafid cholning oldiga kelar ekan, cholning yuzlaridan nur yoğilayotganini kōrib, uni hayotning past-balandini, tekis-chuqurini kōrgan va menga yordam bera oladi deb odim qadam tashlab kelaverdi. Nuroniy cholning yoniga kelgach esa bir qadar tōxtab, unga ōz dardini ochishga choğlandi.

Yigit avvalo mōysafidga salom berdi. Keyin esa ōz dardini cholga asta-sekin bayon qila boshladi. Yigitning turmushi bir tekis ketmayotganini, ōğli giyohvandlikka berilib, yomon insonlar qurshoviga tushib qolganini, qiziga ham yaxshi tarbiya bera olmayotgani, ayoli bōlsa, kun bōyi uyda ōtirsa ham, hech qachon uyiga qaramasligini ay-

tib, cholga hasrat qildi. U yana uyida halovat yōqligini, ōz ishlari ham yurishmayotganini, uyida baraka yōqligini va rizqining ham kelmay qolganini aytib, cholga nima qilishini sōrab yuzlandi.

Mōysafid chol yigitning gaplarini diqqat bilan eshitdi. Uni gaplarini eshitar chog'i, bu masalaga yechim qidirdi va yigit gaplarini tamomlagach, unga ōz maslahatini bayon qildi. Uning maslahatiga kōra: yigit uyiga borgach, „taxtaga „Hayot hamisha ham shunday bōlavermaydi",– deb yozishi kerak edi. Yigit taajjublanib dedi: „Faqat shunday qilishim kerakmi? Shunda hayotim ōz izmiga tushib ketadimi." Mōysafid „ha",– deganday imo-ishora qildi. Yigit uyiga borib chol aytgandek, taxtaga yozilga ushbu gapni uyi-

ning eshigi tepasiga mixlab qōydi.
Yillar ōtdi. Yigitning hayoti yax-
shi tomonga ōzgarib ketdi. Qizi
yaxshi yigit bilan turmush qurdi,
ōgli bu ishidan uyalib, giyohvand-
likni tark etib, yaxshi bir ishga
joylashdi, rafiqasi bōlsa, yigit xoh-
laganidek ōz uyiga chiroyli be-
ka bōldi. Yigitning ōzi bōlsa, yax-
shi bir ishning yoqasidan tutdi.
Ishlari yurishib, mashina ham so-
tib oldi. Bir kuni mashinasida ay-
lanib yurib, ōsha tanish kōcha-
dan ōtib qoldi va cholni ōsha
yerdi, xuddi ōsha holida uchra-
tib qoldi va mashinasidan tush-
may, oynasini ochib, cholga gapira
ketdi. U cholga dedi: „Hoy boboy,
qarang, mining ishlarim yurishib
ketdi. Siz bōlsangiz hali ham
shu holda ōtiribsiz, nōnoq chol".
Chol esa: „Senga, ōglim, yana
bir maslahat ōsha taxtani olib

tashlama,"- dib jilmayib qoldi.
Insonning hayoti har doim ham bir tekisda ketavermaydi. Umr goho shodlik, goho ğamda ōtib boradi. Alloh ōz bandalari uchun turli xil sinovlar tayyorlab qōyadi. Shodlikda kulib, ğamda siqilib qolgan taqdirimizda ham bu kunlarni ōtib ketishini, hayot gōyo rōyo, u kōz ochib - yumguncha ōtib ketishini ōylab, ōzimizni ovutishimiz kerak. Zero, hamisha shunday bōlavermaydi!